



(usbekisch)

Hurmatli bemorlar,

biz shiforkorlar Sizlarni muolaja qilib davolash uchun bajonidil hozirmiz. Siz bizning shifoxonalarga doimo xush kelasiz.

Davolash jarayonida Siz tish doktori bilan qiyalmasdan bemalol gaplasha va bir biringizni to'liq tushuna olishingiz lozim. Tish doktori Sizga savollar berishi kerak. Masalan, u og'riqlar aynan qayerdaligini, og'riqlar qancha vaqtdan beri borligini yoki Siz biror joyingizda bosim his qilayotganingizni so'raydi. Sizning javoblarining kasallik turini va qanday muolaja kerakligini aniqlash uchun zarurdir.

Ushbu muolajani va davolash paytida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tish doktori Sizga tushuntirib berishi kerak. Shuning uchun Sizda ma'lum dorilarga qarshi allergiyalar bor yoki yo'qligini, OIV infeksiyasi yoki gepatit C kabi kasalliklar borligini yoki homilador ekanliginigzni doktorga ma'lum qila olishingiz juda muhimdir. Agar tish doktori ushbu ma'lumotlari olmasdan yoki Sizga tushuntirish bermasdan Sizni davolasa, u qoqunga xilof ish tutgan bo'ladi va eng avvalo Sizning sog'liginizni xatarga qo'ygan bo'ladi.

Agar Siz o'zingiz nemis tilida so'zlasha olmasangiz, muolaja paytida tish doktori bilan nemis tilida yaxshi gaplasha oladigan odamni o'zingiz bilan birga olib keling. Bu odam professional tarjimon bo'lishi shart emas. U nemis tilini yetarlicha tushunib so'zlasholsa bas.

Ilova qilingan "Bemor so'rovnomasasi"ni qabul kuni to'ldirib, o'zingiz bilan birga olib keling.

Shuningdek, shaxsingizni tasdiglovchi hujjatni [masalan, pasportingizni] va „Bemorlarni davolash hujjati“ [Krankenbehandlungsschein]ni ham o'zingiz bilan olib keling. „Bemorlarni davolash hujjati“ borasida ma'lumotlarni olish uchun Ijtimoiy ishlar idorasi [Sozialamt]ga yoki Siz hozirda yashayotgan muassasaning xodimlariga murojaat qiling.

Biz Sizni qo'limizdan kelgancha yaxshi muolaja qilamiz!

*Sizning Niedersachsen dagi tish doktorlaringiz*